



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



MEDIAMATNNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Xalimjonova Shaxnoza Mamurjonovna

Xalqaro Qishloq Xo'jaligi Universiteti.

Assistent o'qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mediamatn tushunchasi hamda ijtimoiy tarmoqlarda yaratilgan mediamatnlarning ligvistik xususiyatlari turli misollar orqali tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ijtimoiy mediamatnlarning leksik, stilistik, sintaktik hamda pragmatik jihatlari o'r ganilib, ularning oddiylik, emotSIONallik, qisqalik va interaktivlik kabi belgilariga alohida urg'u beriladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda matnlar multimodal vositalar bilan boyitilishi, o'quvchiga ta'sirchan yetkazilishining lingvopragmatik asoslari ham yoritiladi. Maqolada tilshunos olimlarning fikrlariga asoslangan iqtiboslar keltirilib, mediamatn tushunchasi hamda unga xos leksik, sintaktik xususiyatlari misollar orqali taqdim etiladi.

Kalit so'zlar. Mediamatn, ijtimoiy tarmoq, til xususiyatlari, lingvistika, stilistika, sintaktik, leksik, pragmatik, diskurs, interaktiv, emotSIONallik, multimodal vositalar.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida axborot vositalari inson tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mediamatn esa ushbu axborotni ommaga yetkazishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Mediamatn- bu Ommaviy axborot vositalari (OAV)yoki raqamli platformalarda (gazeta, televideniye, radio, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) orqali tarqatiladigan, ommaga mo'ljallangan yozma va og'zaki matn bo'lib, o'ziga xos lingvistik va stilistik xususiyatlarga ega. Ushbu maqolada mediamatnning lingvistik xususiyalari, ya'ni uning tuzilishi, til birliklarining ishlatalishi, kommunikativ va leksik funksiyalari tahlil qilinadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, mediamatn ijtimoiy- siyosiy hayotda bevosita axborot uzatuvchi emas, balki, "ijtimoiy ongi shakllantiruvchi kommunikativ vosita hisoblanadi" (Abdurahmonova, 2020). Shuningdek, mediamatn mediavoqelik natijasi hisoblanib, medianing turli ko'rinishlari, ya'ni gazeta va jurnallardagi maqola, tezislар, televideniya orqali uzatilayotgan ko'rsatuvalar, dasturlar, klip, film,kino, intenet tamoqlaridagi videoroliklar, gif, animatsiya, messengerlarning barcha turdagи ma'lumot tashayotgan rasmlи va grafik belgilar orqali bayon etilgan axborotdir. Bugungi kunda mediamatn deganda media ishlab chiqarishning aniq natijasi, mediamahsulot nazarda tutiladi, bu axborotdan iborat va medianing istalgan turi va janrida (gazetadagi maqola, teleko'rsatuv videoklip, reklama xabari, film va





boshqalar)da bayon etilgan xabar bo’lib, ommaviy auditoriyaga yo’naltiriladi. Mediamatn lison va mediashaklning o’zaro birligidan hosil bo’ladi. U lisoniy va mediabelgilarning dialektik birligidan iborat bo’lib, medianutqning uch darajasi: so’zlardan iborat matn, videoqator va grafik tasvir darajasi bilan taqdim etiladi (Babaniyazova, M.J., 2024).

Shunday qilib, mediamatnlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- Ommaboplilik- mediamatnlar keng auditoriyaga mo’ljallanganligi uchun sodda va tushunarli tilda yozilishi kerak.
- Axborot beruvchanlik- asosiy maqsad ma’lumot yetkazishdir.
- Baholochanlik- jurnalist yoki muallif fikri, munosabati yashirin yoki ochiq ifodalanadi.
- Manipulyativlik- o’quvchi ongiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko’rsatish imkoniyati mavjud (Karimova, 2018).

Mediamatnning lingvistik vositalari

Mediamatn o’zining til qurilishlari bilan boshqa matn turlaridan ajralib turadi. Uning leksik tarkibida ijtimoiy- siyosiy atamalar, zamonaviy yangiliklarga oid so’zlar, baholovchi birliklar kelng qo’llaniladi. Karimovaning ta’kidlashicha, ”mediamatnlarda so’z tanlovi muallifning pozitsiyasini bildiruvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi” (Karimova, 2018, 45- bet).

Masalan:

- “ Narxlar osmonga chiqdi”- bu yerda “Osmonga chiqdi” iborasi kuchli metafora bo’lib, voqelikni baholashni ifodalaydi. Sintaktik jihatdan esa, mediamatnlar oddiy, sodda tuzilgan gaplardan iborat bo’lib, ular o’quvchi e’tiborini jalg qilishga xizmat qiladi. Stilistik jihatdan esa, mediamatnlarda ko’pincha emotsional vositalar- metafora, ironiya, epitet va kinoya keng qo’llaniladi. (Tursunov, 2019).

Mediamatnlarning pragmatik xususiyatlar

Mediamatnni tahlil qilishda uni faqat lingvistik emas, balki pragmatik vosita sifatida ham ko’rish mumkin. U nafaqat axborot uzatadi, balki o’quvchi yoki tomoshabning fikrlash tarziga ta’sir ko’rsatadi. T va Deyk ta’kidlaganidek, “mediamatnlar diskurs orqali ijtimoiy hokimiyatni mustahkamlovchi va unga ta’sir ko’rsatuvchi vositadir”(Van Deyk, 2014, 25-bet)

Masalan, quyida keltirilgan iboralar o’quvchida ishonch uyg’otadi va muallif pozitsiyasini yumshoq shaklda yetkazishga yordam beradi.

- “Ekspertlar fikricha...”
- “Kutilmoqda...”





- “Shubhasiz...”

Globallashuv va internetning rivojlanishi bilan jahon miqyosida ko’plab tillar orasida o’zaro ta’sir almashinuvi davom etmoqda. O’zbek mediadiskursiga ingliz tilining ta’siri ayniqsa sezilarli darajaga ega.

Albatta bu ta’sirni leksik va sintaktik jihatdan ko’rib chiqish mumkin.

1. Leksik ta’sir

Ma’lumki, o’zbek tiliga o’zga tillardan jumladan ingliz tilidan o’tgan so’zlar va terminlar, mediamatnlarda juda ko’p uchraydi. Xususan, texnik, iqtisodiy, ilm-fan, biznes va internet tarmoqlari terminologiyasida ingliz tilidan o’zlashtirilgan zo’zlar va iboralar keng qo’llaniladi. Bu so’zlar o’ziga xos jihatlarga ega, chunki ular odatda hozirgi vaziyatga mos keladi va o’zbek tilidagi sinonimlari bilan almashinishi ham qiyin.

Masalan:

- Start up
- Marketing
- Management
- Online
- Offline
- Feedback
- Selfie
- Influencer

Shuni alohida ta’kidlash joizki, aksar hollarda ingliz tilidan o’tgan so’zlar o’zbek tilining gramatik qoidalariga moslashmaydi va ular o’zgarishsiz qo’llaniladi.

2. Sintaktik ta’sir

Ingliz tilining til va jumla tuzish qoidalari sifatida o’zbek tiliga olib kirgan o’zgarishlardan biri sintaktik ta’sirlar hisoblanib, aynan ingliz tilining tartiblash usullari, masalan, fe’lni jumlada birinchi o’ringa qo’yish kabi holatlar o’zbek tilida ham qo’llaniladi. Bu kabi holatlar esa ko’pincha jumladagi so’zlarning taqsimotiga va uning ma’nosiga ta’sir qiladi.

Masalan:

- “Ushbu taklif bizga yordam bermoqda” o’rniga “Bu taklif bizga yordam beradi” yoki This request is helping us” tarzda so’zlar tuzilishi.
- “Nima uchun bu ishni qilishingiz kerak?” yoki “Why you should do this?” tarzidagi jumlalarda ham ingliz tilining ta’siri kuzatiladi.

Bu kabi sintaktik ta’sirlar o’zbek tilining sintaksisini o’zgartirmasdan, faqatgina ba’zi iboralar va shakllarning interaktiv va tezkor shakllarida namoyon bo’ladi.





Xulosa.

Mediamatn zamonaviy jamiyatda axborot uzatish va ijtimoiy ongni va munosabatlarni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Uning lingvistik xuxusiyatlari-leksik, stilistik, sintaktik va pragmatik jihatlari orqali u o’quvchiga nafaqat ma’lumot beradi, balki unga ta’sir qiladi. Mediamatnlarni lingvistik va semantik nuqtai nazardan o’rganish uni chuqr anglashga imkon beradi va axborot maydonida til siyosatini chuqr tahlil qilishga yo’l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonova G. *Til va mediamatn: nazariya va amaliyot.* – Toshkent: Fan, 2020.
2. Babaniyazova M. Q., (2024) “*Mediamatn- Medialingvistikaning yetakchi obyekti*”. Tadqiqotlar jahon ilmiy- metodik jurnali. 33- son, 2- qism.
3. Karimova N. *Mediamatn lingvistikasi.* – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2018.
4. Tursunov B. *Ommaviy kommunikatsiya va til: lingvopragmatik yondashuvlar.* – Toshkent, 2019.
5. Van Deyk T. *Diskurs va hokimiyat.* – Tarjima, Toshkent: 2014.
6. Internet manbalari: www.kun.uz, www.gazeta.uz, www.bbc.com/uzbek

